

TO‘QIMACHILLIK SANOATINING EKSPORT FAOLIYATI

Katta o‘qituvchi T.S. Saidmuradova

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizdagi to‘qimachilik sanoatining eksport hajmi, eksport geografiyasi, hamda dunyodagi eng kuchli raqobatbardosh bo‘lgan paxta to‘qimachilik kompaniyalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: eksport, import, raqobatbardoshlik, eksport geografiyasi, tannarx, tayyor mahsulot, mahsulotlar assortimenti.

Annotation. This article presents the export volume of the textile industry in our country, export geography, and the most competitive cotton textile companies in the world.

Key words: export, import, competitiveness, export geography, cost, finished product, product range.

To‘qimachilik sanoati - O‘zbekiston milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Sohadagi yutuqlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10. 01. 2023 yildagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-2-son Farmoni buning yaqqol misolidir. Ushbu farmonga binoan keyingi 5 yilda yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,1 baravarga va eksport ko‘rsatkichini 2,6 baravarga oshirish rejalashtirilgan. Gilam va uy to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni paxta tolasini chuqur qayta ishlash orqali yangi bosqichga olib chiqish maqsadida:

- Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlash uchun 200 million AQSH dollari miqdoridagi mablag'lar 3 yil muddatga yillik 4 foiz stavkada ajratiladi. Mablag'lar gazlama, trikotaj mato va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari eksport qiluvchi korxonalarni uzluksiz aylanma mablag' bilan ta'minlash uchun yo'naltirilishi;
- tijorat banklarida 100 million AQSH dollari miqdorida, 10 yil muddatga, 3 yillik imtiyozli davr bilan yillik 4 foiz stavkada va qolgan davr uchun yillik 5 foiz stavkada gazlama, gilamchilik, bo'yash-pardoqlash, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalariga kredit liniyalari ochilishi aytilgan.

Farmonda Kelgusi 5 yilda tayyor mahsulot ishlab chiqarishni 4-5 baravarga ko'paytirish, tannarxni raqobatchilarga nisbatan arzonlashtirib, tashqi bozorlarni egallash bo'yicha topshiriqlar berildi. Buning uchun mahsulotlar assortimentini kengaytirib, sifatini keskin oshirish zarurligi alohida ta'kidlandi [1].

Paxta asosan jahon to'qimachilik korxonalari bozorini va jahon kiyim-kechak ishlab chiqarish bozorini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu tadqiqotga ko'ra, global paxta bozori 2027 yilga kelib 46,56 milliard AQSH dollariga yetishi kutilmoqda, 2020 yildan 2027 yilgacha CAGR (yillik o'sish sur'ati) 2,74% ni tashkil qiladi [3].

Dunyoda eng kuchli, raqobatga ega bo'lgan, juda kuchli raqobatbardosh bo'lgan paxta to'qimachilik kompaniyalari quyida ro'yhatda keltirilgan. Ushbu kompaniyalar paxta bozorining yetakchi liderlari Unifi Inc, Weiqiao Textile Company Limited, Lu Thai Textile Co. Ltd, Gokak Mills, Vardhman Group, Damodar Group, Banswara Syntex Limited, Shri Vallabh Pitti Group, Oshal Group hisoblanadi. 2022 yil yakuniga ko'ra, O'zbekistondan eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari xajmi 1,86 mlrd dollarni tashkil etdi, bu oltindan tashqari barcha eksport hajmining 20 foizini tashkil etadi. To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining 70% dan ortig'i (qiymat jihatidan) Rossiya, Xitoy va Qirg'izistonga to'g'ri keladi [2]. To'qimachilik mahsulotlari eksporti tarkibida asosiy ulushni ip o'ramlari (50,7%), shuningdek tayyor trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari (36,3%) egalladi. Davlat statistika qo'mitasining [ma'lumotlariga](#) ko'ra,

O'zbekiston eksport geografiyasi dunyoning 70 mamlakatini o'z ichiga olgan bo'lib, ushbu mamlakatlarga 500 dan ortiq turdagi to'qimachilik mahsulotlari sotilgan. To'qimachilik mahsulotlari eksportining eng katta ulushi Rossiya (655,5 mln dollar, 35,6%), Xitoy (403,4 mln dollar, 21,6%) va Qirg'iziston (284,4 mln dollar, 15,2%) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, so'nggi o'rindagi mamlakatga eksport hajmi qiymat jihatidan o'tgan yilgigiga nisbatan 3 barobarga oshdi. Stat.uz nashrining [xabar berishicha](#), Dunyo bozorida O'zbekiston kiyim-kechak eksporti hajmi bo'yicha Rossiyani ortda qoldirdi. Yil davomida O'zbekistondan Qozog'istonga taxminan 13 ming tonna (+30,4%) — 20,8 mln dollarlik to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari, Rossiya esa 10,1 ming tonna — 182,8 mln dollarlik kiyim eksport qilindi [3].

Xulosa qilib shuni aytib o'tish lozimki yuqoridagi tahlillar natijalariga asosan, mamlakatimizda to'qimachilik sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha quyidagi taklif va xulosalar berishimiz mumkin: to'qimachilik sanoatining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlarining hajmi va sifatini oshirish; to'qimachilik sanoatining boshqaruv tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish; ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or innovatsiya texnologiyalari, dizaynerlik ishlarini keng joriy etish, furnitura va aksessuarlarning zamonaviy namunalarini ishlab chiqarishni mahalliyashtirish; to'qimachilik sanoati uchun kadrlar tayorlash, qayta tayorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 10.01.2023 yildagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llabg'uvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-2-son Farmoni
2. Abdullayeva B. Y. (2022). Повышение эффективности инновационных процессов на предприятиях текстильной промышленности. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(4).
3. Uzbekiston Respublikasi Davlat statistika kumitasi ma'lumotlari